

QASHQADARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-mart*



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. (75)221-44-28**

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6841 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 14 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6827 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 5002,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 108,4 % ga o'sish ta'minlandi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 219,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 104,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4114,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 669,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,3 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-mart oyiga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	5002,9	108,4
Qarshi sh.	1352,0	112,8
Shahrisabz sh.	408,4	105,7
G'uzor	202,2	110,2
Dehqonobod	164,2	104,8
Qamashi	346,4	106,1
Qarshi	184,0	105,7
Koson	413,2	108,2
Kitob	260,1	106,4
Mirishkor	168,0	105,6
Muborak	147,5	104,8
Nishon	188,4	105,7
Kasbi	198,1	104,8
Ko'kdala	158,0	107,8
Chiroqchi	376,9	106,4
Shahrisabz	177,5	117,6
Yakkabog'	258,0	104,8


2024- yilning yanvar-mart oylarida 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan viloyatning Shahrisabz (117,6 %), Qarshi shahri (112,8 %), G'uzor (110,2 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-mart)



So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,4 % ni tashkil qildi.

2023- yil va 2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-mart oylarida o'sish sur'ati **108,4** % ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 27,0 % bilan 1352,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Muborak tumani 2,9 % bilan 147,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-mart oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra 4 114,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 8,3 % ga oshdi. Vi-loyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 82,2 % ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 104,3 % ga ko'paydi va 219,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,4 % ulushiga to'g'ri keldi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Muborak (99,5 %), Nishon va Mirishkor tumanlari (99,2 %), Kasbi, Qamashi va Qarshi (99,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz tumani (14,1 %), Qarshi shahri (9,4 %), Koson (5,5 %) va G'uzor (4,7 %) tumanlarida kuzatildi.

4,4 %

95,6 %




 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*




2024- yilning yanvar-mart oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1401,8 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 106,0 %) tashkil etdi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-mart), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	669,1	110,3
Qarshi sh.	47,3	115,2
Shahrisabz sh. <i>tumanlar:</i>	13,1	113,1
G'uzor	49,5	110,0
Dehqonobod	25,8	107,3
Qamashi	51,4	109,9
Qarshi	15,6	111,3
Koson	68,1	110,5
Kitob	42,7	109,8
Mirishkor	10,7	111,8
Muborak	40,1	112,7
Nishon	29,2	109,8
Kasbi	18,4	111,6
Ko'kdala	61,0	110,1
Chiroqchi	140,8	109,0
Shahrisabz	31,0	110,2
Yakkabog'	28,0	107,2


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-mart)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-mart)



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 669,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 110,3 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 287,7 mlrd. so'mni (112,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 381,4 mlrd so'mni tashkil etdi (108,0 %).













2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 287,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (159,0 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 156,0 mlrd. so'm  54,2 %	Non va non mahsulotlari 45,2 mlrd. so'm  15,7 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 12,9 mlrd. so'm  4,5 %
Tovuq go'shti 19,6 mlrd. so'm  6,8 %	Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 8,1 mlrd. so'm  2,8 %	Tuxum 7,5 mlrd. so'm  2,6 %
Ziravorlar 14,7 mlrd. so'm  5,1 %	Sut va sut mahsulotlari 8,2 mlrd. so'm  2,9 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 3,2 mlrd. so'm  1,1 %
Tuzlamalar 6,0 mlrd. so'm  2,1 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 1,2 mlrd. so'm  0,4 %	Nooziq-ovqat tovarlar 5,1 mlrd. so'm 1,8 %

2024- yilning yanvar-mart oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 381,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 261,7 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 102,6 mlrd. so'mni, otlar – 15,6 mlrd. so'mni, parrandalar – 1,1 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>167,8 mlrd. so'm</p>  <p>44,0 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>72,5 mlrd. so'm</p>  <p>19,0 %</p>	<p>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>21,4 mlrd. so'm</p>  <p>5,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>59,1 mlrd. so'm</p>  <p>15,5 %</p>	<p>Otlar</p> <p>15,6 mlrd. so'm</p>  <p>4,1 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>43,5 mlrd. so'm</p>  <p>11,4 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,4 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>1,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1440 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1439 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	143,3	108,3
Qarshi sh.	46,2	102,2
Shahrisabz sh. <i>tumanlar:</i>	10,3	108,1
G'uzor	7,0	105,3
Dehqonobod	4,1	107,9
Qamashi	4,9	109,2
Qarshi	5,9	108,0
Koson	4,9	108,0
Kitob	9,0	108,1
Mirishkor	2,4	108,1
Muborak	16,7	133,3
Nishon	12,5	108,0
Kasbi	4,7	107,8
Ko'kdala	1,3	108,1
Chiroqchi	4,5	108,1
Shahrisabz	3,2	108,1
Yakkabog'	5,8	108,1

2024- yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 143,3 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 95,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Viloyat bo'yicha	772,6	100,0
Qarshi sh.	678,9	87,9
Shahrisabz sh.	5,9	0,8
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	0,8	0,1
Dehqonobod	1,5	0,2
Qamashi	0,4	0,0
Qarshi	59,8	7,7
Koson	1,7	0,2
Kitob	2,9	0,4
Mirishkor	1,9	0,2
Muborak	2,2	0,3
Nishon	1,8	0,2
Kasbi	9,0	1,2
Ko'kdala	0,7	0,1
Chiroqchi	3,7	0,5
Shahrisabz	0,8	0,1
Yakkabog'	0,7	0,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (678,9 mlrd. so'm), Qarshi va (59,8 mlrd. so'm) Kasbi tumanlari (9,0 mlrd. so'm), Shahrisabz shahri (5,9 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-mart oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 772,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,7 foizga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 332,9 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 63,5 foizga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 439,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 4,0 m.) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1364,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,7 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi

10,9 %

148,4 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

89,1 %

1216,5 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi hajmi statistik hisoblarga qaraganda 1216,5 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 113,7 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 89,1 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2301 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 12 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2289 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Qamashi (169,7 %) va Shahrisabz tumanlari (125,3 %) Shahrisabz shahri (114,0%) va G'uzor tumanida (113,8 %) kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	1364,7	108,7
Qarshi sh.	628,7	107,3
Shahrisabz sh.	123,9	114,0
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	42,4	113,8
Dehqonobod	6,6	113,2
Qamashi	44,9	169,7
Qarshi	106,4	107,2
Koson	107,9	113,7
Kitob	78,9	112,8
Mirishkor	40,1	111,2
Muborak	22,0	109,4
Nishon	26,5	113,3
Kasbi	14,4	33,3
Ko'kdala	5,2	111,9
Chiroqchi	49,6	113,4
Shahrisabz	37,3	125,3
Yakkabog'	29,7	113,7